

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI



“Tasdiqlayman”
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha birinchi prorektor
O. Xudoyberdiyev
2024- yil



“Qizlarjon” klubi faoliyatini tashkil
etish to'g'risida

NIZOM

TERMIZ-2024

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Qizlarjon” klubi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida
NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom “Qizlarjon” klubi (keyingi o‘rinlarda — Klub) faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Klub Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi tashkilotlar, oliy ta’lim hamda professional ta’lim muassasalari, akademik litseylarda yuridik shaxs tashkil etmagan holda tashkil etiladi.

3. Klubga uning faoliyatida ishtirok etish istagini bildirgan 16 yoshga to‘lgan va 31 yoshga to‘lmagan yosh talaba-o‘quvchi qizlar ixtiyoriy ravishda a‘zo bo‘lishi mumkin.

4. Klub o‘z faoliyatini mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

II. “Qizlarjon” klubining maqsad va vazifalari

5. “Qizlarjon” klubining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ulaml milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik g‘oyalari sodiqlik, milliy o‘zlikni anglash, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish va rivojlantirish, turli mafkuraviy tahdidlardan asrash;

- demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda qizlar faolligini oshirish, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega tashabbuskor, shijoatli, el-yurt manfaati yo‘lida bor kuch-g‘ayrati, bilim va salohiyatini safarbar qiladigan, mamlakat istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir qizlar safini kengaytirish;

- qizlarning zamonaviy kasb-hunarlamini puxta egallashi uchun munosib sharoitlar yaratish, bandligini ta’minlash, ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish, ularni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, tashabbuslarini rag‘batlantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish;

- qizlarning ilmiy va badiiy kitoblar, jumladan, elektron asarlarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm,

“ommaviy madaniyat” va boshqa yot g‘oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish;

- qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi va oila muqaddasligi g‘oyalarini keng targ‘ib qilish, erta turmush qurish va yosh oilalar ajralishining oldini olishga qaratilgan samarali tadbirlari amalga oshirish;

- qizlarni, ayniqsa, faol bo‘lmagan qismining bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishga, ijodiy to‘garaklar va turli, jumladan, xorijiy tillarni o‘rgatish o‘quv kurslariga keng jalb etish;

- yosh oilalar, xususan, imkoniyati cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni ma‘naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratishga qaratilgan maqsadli ishlarni tashkil etish;

- qizlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va profilaktika qilish ishlarida faol ishtirok etish;

- mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etadigan, xalq manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qiladigan bilimli, tashabbuskor, ishbilarmon, halol va fidoyi yosh rahbar kadrlarni tarbiyalash, zaxirasini yaratish va ularni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining mas‘ul lavozimlariga tavsiya etish.

III. “Qizlarjon” klubini tashkil etish

6. “Qizlarjon” klubi tarkibi ta‘lim muassasasining Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi tavsiyasiga ko‘ra shakllantiriladi.

6.1. Klub sardori (keyingi o‘rinlarda sardori deb yuritiladi) Kengash raisi tavsiyasiga ko‘ra klub a‘zolari tomonidan saylanadi.

6.2. Klubga a‘zolari ta‘lim muassasasining kontingentidan kelib chiqib 15-nafardan 30 nafargacha bo‘lgan eng faol o‘quvchi-qizlardan tarkib topadi.

6.3. Klubning doimiy faoliyati sardori tomonidan boshqariladi.

6.4. Klubning birinchi yig‘ilishi o‘quv yilining boshlanishi uchinchi o‘n kunligida sardori tashabbusi bilan o‘tkaziladi. O‘quv yili davomida umumiy yig‘ilish har chorakda o‘tkaziladi.

7. Klub sardori:

- klub faoliyatini amalga oshirishda a‘zolar tomonidan bildirilgan takliflarni umumlashtirib chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadi;

- klubning har chorakda o‘tkazilishi rejalashtirilgan tadbirlar rejasini Xotin-qizlar maslahat kengashi raisiga tasdiqlash uchun taqdim etadi;

- klub yig‘ilishlarini tashkillashtiradi;

- har chorak yakuni bo'yicha Xotin-qizlar maslahat kengashi raisiga yozma hisobot taqdim etadi;

klub a'zolarining jamoat ishlaridagi faolligini monitoring qilib boradi va natijalarni tahlil qilib Xotin-qizlar maslahat kengashi raislga ma'lumot beradi;

- Xotin-qizlar maslahat kengashi raisining qonuniy topshiriqlarini bajaradi.

8. Klub a'zolari:

- klub faoliyatni samarali tashkil etishda faol ishtirok etadi, ilg'or g'oyalarga asoslangan takliflar ishlab chiqadi va uni amalga oshirishda shaxsan ishtirok etadi;

- klub yig'ilishlarida faol qatnashadi;

- targ'ibot-tashviqot tadbirlarini amalga oshirishda "tengdosh-tengdoshga" tamoyiliga asoslanib, faol bo'lmagan qizlar bilan suhbatlarda bor iqtidori va salohiyatini ishga solib, yuksak umuminsoniy fazilatlarini o'zida aks ettirib, kamtarlik, shirinso'zlik va o'zaro hurmat ko'rsatishda namuna bo'ladi;

- jamoat ishlaridagi shaxsiy faolligini sarhisob qilib boradi va har chorakda shaxsan ishtirokida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida sardoriga ma'lumot taqdim etadi.

IV. "Qizlarjon" klubi faoliyatini rag'batlantirish tartibi

9. "Qizlarjon" klubi sardori va eng faol bo'lgan a'zolari Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi tavsiyasi bilan rag'batlantirilishi mumkin.

9.1. "Qizlarjon" klubi sardori Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi uchun ajratilgan xonadan foydalanadi.

V. Yakunlovchi qoida

10. Klub faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash qonun hujjatlarida taqiqlanmagan manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

11. Klub faoliyati uning nizomiga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq holda amalga oshirilishi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan nazorat qilinadi.